

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIGA PSIXOGENETIKANING TA'SIRI

Ibodullayeva Sabohat Zavqiy qizi

Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada psixik taraqqiyotning genetik jihatlarini ilmiy aniqlash, irsiylik shart-sharoitlari va inson genetikasining asosiy muammolari hamda organizm va psixikada irsiy belgilarning namoyon bo'lish xususiyatlari nazariy va amaliy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixogenetika, irsiyat, muhit, shaxs, genetika, psixika, psixologiya, psixometrik, genetik xulq, statistik usullar, egizaklar metodi, ijtimoiylashuv.

INFLUENCE OF PSYCHOGENETICS ON THE SOCIALIZATION OF THE PERSON

ВЛИЯНИЕ ПСИХОГЕНЕТИКИ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ЧЕЛОВЕКА

Psixogenetika aslini olganda, genetika va psixologiya ya'ni differensial psixologiya orasidagi fan hisoblanadi. Psixogenetika asosan, irsiylik shart-sharoitlari, inson genetikasining asosiy muammolariga doir masalalarni, psixogenetik muammolarning yutuq va kamchiliklarini hamda psixologik xususiyatlarning nasldan naslga o'tish qonuniyatlarini atroflicha o'rganadi. Psixogenetika atamasini birinchi bo'lib G.Ebbingauzning shogirdi V.Shtern 1990-yil "Individual farqlar psixologiyasi" haqida kitobida ilk bor qo'llagan. Uning fikricha, psixogenetika umumiy psixologiyadan emansipatsiya sifatida ajralib chiqqan.

Keyinchalik bu fan keng tarmoq yoya boshladi. G.I. Rossilomonning "Psixogenetika" nomli yirik kompleksi buning yaqqol dalilidir.

Shuni aytish joizki, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Shuning uchun ham, psixogenetika fani o'z sohasini tadqiq qilishda va mohiyatini yoritishda bir necha metodlarni qamrab oladi. Jumladan, oddiy kuzatish yo'li bilan aniqlash qiyin bo'lgan yoki butunlay mumkin bo'lmagan ko'p ma'lumotlar aniqlandi.

Psixogenetika fanining rivojlanishiga hamda psixikadagi o'zgarish va buzilishlarni o'rganishda A.F.Lazurskiy, A.N.Galperin, A.R.Luriya, L.S.Vigotskiy, V.M.Bexterov kabi olimlar o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Psixogenetikaning boshlanishi ko‘proq ingliz olimi F.Galton nomi bilan bog‘liq. Olim ko‘proq genetika xulqining jihatlarini ochib berdi. Shuningdek, psixogenetikaning birinchi bosqichini – xatti-harakat genetikasi tashkil etishini, ikkinchi bosqichni - XX asr 30- yillari oxirigacha bo‘lgan davrdagi yorqin uslubiy yutuqlar bilan xarakterlanishini aytib o‘tgan. Buning natijasida, diagnostikaning ishonchli usullari mono va dizigotalarni bir - biri bilan taqqoslash, psixogenetikada statistik baholashning rivojlanishi kuzatildi. Shundan so‘ng qarindoshlikning psixogenetikadagi ahamiyatini R.Fisher, S. Raytlar keng ochib berdi. Ular bu genlarning turli holatlarda o‘zlarini tutishi va unga bog‘liq tarzda o‘zgarishini o‘rganishdi. Eng asosiysi, psixogenetikada yuqoridagi tadqiqotlar natijasida ikkinchi bosqichda “genetic”, “psixometrik”, “statistik usullar” o‘zaro birlashdi. Psixogenetikaning uchinchi bosqichida intellekt, turli shakldagi aqliy defektlar, psixik kasalliklar bo‘yicha genetik tadqiqotlar olib borilgan. Psixogenetikaning uch bosqichli o‘rganish tarixi B.Tomson va G.Uayldlar ishlarida o‘z aksini topgan.

Psixogenetika so‘ngi yillarda qanday rivojlandi va ahvoli qanday?

Keyingi o‘n yilliklarda psixogenetikada “egizaklar metodi”, “muhit ta’siri tengligi” kabilarni aniqlash ro‘y berdi.

M.Y.Grotning “Psixologiya” nomli yirik maqolasida ham psixogenetika “avlod - urug‘ xotirasi”, “psixologik holatlar potensial zaxirasi” sifatida izohlangan.

Shaxsning ijtimoiylashuvida ayniqsa, muhitning ta’siri uning ongi - shuuri, dunyoqarashi, ehtiyojlari va intilishlariga ta’sir ko‘rsatadi. Inson psixikasiga ta’sir etuvchi “genetik – muhit” ta’sirlar undagi individual xususiyatlar va tavofutlarni ochib berishda hal qiluvchi tadqiqot vositasidir. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Shaxsning ijtimoiylashuviga ayniqsa biologik va ijtimoiy psixogenetik omillar ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda psixogenetika shaxsning ijtimoiylashuviga atrof- muhitning ta’sirini turli tomonlarini o‘rganishga oid faktlar bilan boyib bormoqda. Fenotip va genotip atrof- muhitning o‘zaro ta’siri natijasidir. Shuning uchun ham shaxs individualligining shakllanishi murakkab ko‘p darajalari o‘zaro ta’sirlar sharoitida sodir bo‘ladi.

Shaxsning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarida individuallararo o‘zgaruvchanlikni shakllantirishda irsiyat va muhitning roli juda katta. Genetikada kengroq soha, xulq-atvor genetikasining bir qismi bo‘lib, u hayvonlar va odamlarning hujayraviy faoliyatining har qanday namoyon bo‘lishining irsiy asoslarini birlashtiradi, ularni amalga oshirishda miya va asab tizimi ishtirok etadi. Psixologik olim Galton “iste’dod irsiyati - irsiy daho” deya ta’riflanishi bejiz emas, albatta. Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xildir: nasliy (genetik), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar

shaxsining genetik jihati uning nasliy asosi ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya fe'l - atvor bilan, biofiziologik jihati esa yashash uchun quvvat olish, nasl qoldirish kabi individual ehtiyot bilan belgilanadi.

Insonning ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlaridan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi òrnini belgilab bergan, deydilar. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqim namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim bixevorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan naslga òtib, insonga u tabiatan berilgan deyiladi. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanish ijtimoiy muhit bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari shaxsning jismoniy psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar. Shaxsning ijtimoiylashuvida ayniqsa ko'proq psixogenetika ta'sir ko'rsatadi. Chunki psixogenetika psixologiya va genetika chorrahasida vujudga kelgan, psixik va psixofiziologik xususiyatlarning irsiyat va o'zgaruvchanligi haqidagi fandır.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Булаева К.Б. Генетические основы психофизиологии человека. М.,1991.
- 2.Бочков Н.П. Генетические аспекты комплексного изучения человека.М.1989.
- 3.Дубинин Н.П., Булаева К.Б. Сравнительно-популяционное исследование генетических основ индивидуально-психологических различий. Психологический журнал, 1984, №4, стр. 95-108.
- 4.Егорова М.С. Генетика поведения: психологический аспект.М., 1985.
- 5.Левонтин Р. Человеческая индивидуальность: наследственность и среда. М., 1993.
- 6.Равич-Щербо И.В. Исследования по психогенетике человека. Вопросы психологии, 1972, №2, стр. 178-187.